

**ENERGETIKA MUHANDISLIGI TALABALARIDA LEKSIK
KOMPETENSIYANI INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**
<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.013>

Xoliyorov Bunyod Husanovich

Qarshi davlat texnika universiteti p.f.f.d. (PhD), dotsenti

Xidirova Zarina Nuriddin qizi

Qarshi xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya Maqolada energetika muhandisligi yoʻnalishi talabalarida ingliz tilining texnik leksik kompetensiyasini interfaol mashqlar asosida rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda leksik kompetensiyaning tarkibiy qismlari va uni rivojlantirish bosqichlari belgilangan. Eksperimental guruhda interfaol mashqlar (rolli oʻyinlar, loyihalar, kollaborativ topshiriqlar) va innovatsion platformalar (Kahoot, Quizlet) asosida oʻqitish tashkil etilgan. Tajriba yakunida eksperimental guruhda leksik bilim 22,4% ga, leksik kompetensiya 23,6% ga oshgani statistik jihatdan isbotlangan ($p < 0,001$).

Kalit soʻzlar: leksik kompetensiya, interfaol mashqlar, energetika muhandisligi, texnik terminologiya, innovatsion platformalar.

Аннотация В данной статье представлена методика развития технической лексической компетенции английского языка у студентов направления энергетического машиностроения на основе интерактивных упражнений. В исследовании определены компоненты лексической компетенции и этапы её развития. В экспериментальной группе обучение было организовано на основе интерактивных упражнений (ролевые игры, проекты, коллаборативные задания) и инновационных платформ (Kahoot, Quizlet). По результатам эксперимента доказано, что в экспериментальной группе лексические знания повысились на 22,4%, лексическая компетенция – на 23,6% ($p < 0,001$). Разработанная методика рекомендуется для преподавания английского языка в технических направлениях высших учебных заведений.

Ключевые слова: лексическая компетенция, интерактивные упражнения, энергетическое машиностроение, техническая терминология, инновационные платформы.

Abstract This article presents a methodology for developing technical lexical competence in English among power engineering students based on interactive exercises. The study identifies the components of lexical competence and the stages of its development. In the experimental group, training was organized on the basis of interactive exercises (role-playing games, projects, collaborative tasks) and innovative platforms (Kahoot, Quizlet). The results of the experiment proved that in the experimental group,

lexical knowledge increased by 22.4%, and lexical competence by 23.6% ($p < 0.001$). The developed methodology is recommended for teaching English in technical fields of higher educational institutions.

Key words: lexical competence, interactive exercises, power engineering, technical terminology, innovative platforms.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida energiya sohasidagi xalqaro hamkorlikning kengayishi, xorijiy texnologiyalar va standartlarning joriy etilishi energetika muhandislaridan ingliz tilini, ayniqsa texnik leksikani mukammal bilishni talab qiladi. Biroq bugungi kunda energiya muhandisligi yoʻnalishida ingliz tilini oʻqitishda texnik leksikani interfaol usullar asosida oʻzlashtirish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu muammo tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning **maqsadi** – energetika muhandisligi talabalarida ingliz tilining texnik leksik kompetensiyasini interfaol mashqlar vositasida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental tekshirish.

ASOSIY QISM

Leksik kompetensiya – bu oʻrganilayotgan tilning soʻz boyligini bilish va ulardan muloqotda toʻgʻri foydalanish qobiliyatidir (Nation, 2013). U kognitiv, operatsional, motivatsion, aksiologik va strategik komponentlardan iborat. Leksik kompetensiyani rivojlantirish quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi: motivatsion (qiziqish uygʻotish), kognitiv (terminlar bilan tanishtirish), operatsional (mashq qilish va mustahkamlash) va nazorat (bilimlarni tekshirish).

Tajriba-sinov ishlari Qarshi xalqaro universitetining energetika muhandisligi fakulteti 3-kurs talabalarida oʻtkazildi. Tadqiqotda 60 nafar talaba ishtirok etdi (30 nafar eksperimental guruh, 30 nafar nazorat guruhi).

Eksperimental guruhda oʻqitish interfaol mashqlar asosida tashkil etildi:

- **Rolli oʻyinlar va simulyatsiyalar** (xalqaro konferensiyada maʼruza qilish, xorijiy kompaniya bilan muzokara);
- **Loyiha asosida oʻqitish** (quyosh elektr stansiyasi loyihasini ishlab chiqish, energiya samaradorligini oshirish loyihasi);
- **Kollaborativ topshiriqlar** ("Jigsaw", "Think-Pair-Share", aqliy hujum);
- **Innovatsion platformalar** (Kahoot viktorinalari, Quizlet fleshkartalari).

Nazorat guruhida anʼanaviy metodika (terminlarni tarjima qilish, matn oʻqish, grammatik mashqlar) qoʻllanildi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari yakunida eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yaxshilanish kuzatildi:

Ko'rsatkich	EG o'sishi	NG o'sishi
Leksik bilim	+22,4%	+6,4%
Leksik kompetensiya	+23,6%	+7,1%
Motivatsiya	+1,32 ball	+0,26 ball

Statistik tahlil (t-test) guruhlar orasidagi farqning ahamiyatligini ko'rsatdi ($p < 0,001$). Eksperimental guruhda yuqori darajadagi talabalar soni 10% dan 73,3% ga oshgan.

XULOSA

Interfaol mashqlar asosidagi metodika energiya muhandisligi talabalarining texnik leksik kompetensiyasini rivojlantirishda an'anaviy metodikaga nisbatan samarali ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarining energetika muhandisligi va boshqa texnik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishda tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nation, I. S. P. (2013). *Learning Vocabulary in Another Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Al-Mahrooqi, M., & Denman, C. (2015). *Issues in English Education in the Arab World*. Cambridge Scholars Publishing.
3. Zarei, S., & Gholami, N. (2017). The effect of role-play on vocabulary learning. *JLTR*, 8(3), 567-575.
4. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Bakirova, K. B. (2024). Methodology of Lexical Competence Formation of Power-Engineering Students. *Pubmedia Jurnal Pendidikan Bahasa Inggris*, 2(1).